



## **OMON MATJON LIRO-EPIK VA DRAMATIK ASARLARIDA DIALEKTIZMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI**

Otajonova Rayxon Zokir qizi

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17450681>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Omon Matjonning liro-epik va dramatik asarlaridagi dialektizmlarning lingvopoetik xususiyatlari fonetik, morfologik, leksik dialektizmlar misolida tahlilga tortilgan.

*Kalit soʻzlar:* dramatik asarlar, liro-epik asarlar, fonetik dialektizmlar, morfologik dialektizmlar, leksik dialektizmlar, Xorazm shevalari.

Badiiy ijodda dialektizmlar narsa, voqea, hodisalarga mahalliy tus berish uchun qoʻllaniladi. Dialektizmlar personajlar nutqini individuallashtirish uchun foydalaniladi. Biroq bunday qoʻllash tufayli dialektizmlar adabiy tilga oid boʻlib qolmaydi. Dialektizmlardan oʻrinli foydalanish badiiy ijodning, umuman, nutqning badiiyligini, uslubning fazilatini, taʼsirchanligini oshiradi.

Badiiy asar muallifi dialektik birliklarni oʻz asarida maʼlum bir maqsadni koʻzlab qoʻllaydi va sheva elementlari yordamida bu ishning uddasidan chiqadi. Ijodkorning asosiy maqsadi:

- a) mahalliy koloritni yuzaga chiqarish;
- b) qahramon nutqidagi oʻziga xoslikni koʻrsatib berish;
- d) soʻz takrorlaridan qochib ularning sinonim variantlarini qoʻllash va hokazolar boʻlishi mumkin.

Omon Matjon ijodida oʻgʻuz lahjasining bor jozibasi namoyon boʻladi. Omon Matjon, avvalo, xalq yozuvchisi, millatiga jonkuyar ijodkor sifatida xalqning maʼnaviy mulkidan foydalanmasligi, u suv ichgan buloqlardan bahramand boʻlmasligi mumkin emas. Yozuvchi oʻz tili, uslubi va ovozigacha ega ijodkorlardan biri sifatida adabiyot maydonida jadal suratlarida qalam tebratgan.

Shoirning shevada yozilgan ijodiy ishlari adabiy tilimiz rivojiga oʻzining ijobiy taʼsirini oʻtkazishda ahamiyatli tajribalardandir. Ularni kuzatar ekanmiz, fonetik jozibadorlik va musiqiylik, koʻchimlar, maʼno tovlanishlari, omonim, sinonim, antonim va tagmaʼnolar asosida hosil qilingan goʻzal falsafiy umumlashmalar sinkretiklik hosil qilib, badiiy durdonalar sifatida adib ijodini bezab turishini guvohi boʻldik. Shunday ekan, bu namunalar chuqur va batafsil tadqiq qilinishga haqli deb hisoblaymiz.

*"U goh solinchoqli taxtda, goh bulutlar ustida koʻrinadi"*

(*"Ardaxiva"* dramatik qissasi, 4-bet)



Ma’lumki, Omon Matjon Xorazm eli farzandi. Uning asarlarida ham bu seziladi. Xorazm shevalariga oid dialektizmlar shoir ijodida ko‘plab uchraydi. Ushbu misralarda “*solinchoq*” deganda arg‘imchoq nazarda tutiladi.

*Qizil baytal sarak-sarak,  
Yaproq sovuradi terak,  
Yig‘layotgan ohu garak,  
Tog‘lar yordam bermadimi?!*

(“Ardaxiva” dramatik qissasi, 14-bet)

Ushbu parchada fonetik o‘zgarishga uchragan so‘z ishlatilgan, Xorazm shevalarida k<g hodisasi mavjud. Kerak so‘zi gārāk tarzida ishlatiladi.

*Ulli uy avvalgi ulli uy emas. Qo‘shin tortib kelmaydi!*

(“Ardaxiva” dramatik qissasi, 17-bet)

Bu so‘zning birinchi qismi *ul* ko‘pgina turkiy tillarda “katta”, “ulkan”, “bosh” ma’nolarini beruvchi *ulu* (ulu) [Севортян, 1962:402] so‘zidir. “Kitob al-idrok”da ham shu shakl va ma’noda qayd etiladi [Севортян, 1962:402]. Mulohazamizcha, *ulu* so‘zining o‘zi ham yasama bo‘lib, tarixan *ul-* o‘zagiga *-u* yasovchisini qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan. Mazkur qolipda fe’l yasalishini ü+ü – “uxlamoq” kabi fe’llarda ham kuzatamiz. *Ulu-* fe’liga *-q//g‘* qo‘shimchasini qo‘shish orqali esa *uluq//ulug‘* so‘zi hosil bo‘ladi. *Ulug‘* so‘zini qadimgi turkiy tildagi *ul-* (yuqori bo‘l-) fe’lidan yasalgan deyish har jihatdan asoslidir [Рахматуллаев, 2000:389]. Faqat uning tarkibini *ul+u+g‘* tarzida ko‘rsatish o‘rinli bo‘lsa kerak. Mumtoz adiblarimiz asarlarida ushbu so‘zning semalari hozirgi adabiy tilimizdan “katta” so‘ziga yaqinligi bilan farqlanadi. Boshqacha aytganda, bu so‘z hozirgi adabiy tilimizda “katta” so‘zi bajargan ma’nolarni o‘zida jamlagan va “buyuk”ka sinonim sifatida qo‘llanilgan. Quyidagi misollar orqali unda dastlab hozirgidek “buyuk”; “idial”; “daho” kabi ma’nolar mavjud bo‘lmaganini kuzatamiz: “Tengri taolo tavfiqi birla bu *ulug‘* ishg‘a ilik urdum”. (Alisher Navoiy); “ul adabdurki, yaxshiyu yomong‘a va *ulug‘u* kichikka bajo keltirurlar. (Alisher Navoiy).

*Ishq hijroni bitdimi,  
Qora urflar yitdimi?!*

(“Ardaxiva” dramatik qissasi, 39-bet)

*Dilim xun, qirmizi yuzlardan qo‘rqdim,  
Makrini yuz gulag gizlardan qo‘rqdim.*

(“Kubro e’tirofi” she’ri, 41-bet)

*Qundoqda tug‘ilgan go‘dak arosat,  
Ezmasin, bas, ulg‘ay bo‘bak, arosat.*

(“Arosat” she’ri, 55-bet)



*bäväk=büväk=böbäk* [bavak, buvak, bo‘bak] – go‘dak, chaqaloq, emadigan, ko‘krakdan ajratilmagan, odatda, bir yoshgacha bo‘lgan bola; chaqaloq. (Urg., Xv., Y.ariq., Xnq.) [Xorazm shevalari lug‘ati, 2024:66]. Bäväk, bäväk, bäk bäväk, atasini cani bäväk, änäsini mali bäväk (xalq qo‘shig‘i).

Xorazm shevalari maishiy leksikasiga oid dialektizmlar ham shoir asarlari tilida faol ishlatilganligini guvohi bo‘ldik. Masalan, “...ikkita sarg‘imtir likopchada tong saharlab kupida chayilgan sariq yog‘...” gapida “*kupi*” – kuva ma‘nosida, “...balki tandirdan yangi uzilgan to‘rtta zog‘ora chiroylik qilib sirchali la‘liga...” gapida “*sirchali la‘li*” dialektizmi – chinni lagancha ma‘nosida, “nevaralariga ham olib boradilar deb, qizi bilan xamir qorib, ijjon tayyorlayotir ekan” gapida “*ijjon*” dialektizmi – qiyma ma‘nosida, “...yumshoqqina go‘mma pishiramiz...” gapida “*go‘mma*” dialektizmi – Xorazm milliy taomi nomi ma‘nosida ishlatilgan.

Shu o‘rinda harakat-holatni anglatuvchi dialektizmlarni sanab o‘tish joiz. Shoir ijodida “*eylanib*” – kechikib; “*qisindim*” – havotir oldim; “*galaqo‘yding*” – kela qolding; “*so‘vinarmish*” – sevinar emish; “*yozg‘irdilar*” – nolib gapirdilar; “*yenglaydim*” – yengillashdim ma‘nosida ishlatilgan dialektizmlarni kuzatdik.

Xullas, hikoya shunday mahorat bilan yozilganki, unda Xorazm milliy mentaliteti Xorazm shevalariga xos dialektizmlar orqali mahorat bilan ochib berilgan. Ushbu dialektizmlar o‘zbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda qayd qilinadigan so‘zlar. Bunday so‘zlar badiiy adabiyotlarda sheva koloritini berish jarayonidagina qo‘llanadi [Аширбоев, 2013:28].

Hozirgi kunda mavjud dialektlar uch lahjaga: qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga bo‘lib o‘rganiladi. Bu lahjalarning har biri o‘ziga xos xususiyatlariga – fonetik, morfologik va leksik jihatdan farqlanadigan qator lingvistik belgilariga ega. Ushbu lingvistik xususiyatlariga ko‘ra Omon Matjonning liro-epik va dramatik asarlarida keltirilgan dialektizmlarni quyidagi guruhlariga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘lib, ijodkor qo‘llagan shevaga xos so‘zlar orasida fonetik, leksik, morfologik dialektizmlarning har biri alohida ustunlikka egadir:

1. Fonetik dialektizmlar
2. Morfologik dialektizmlar
3. Leksik dialektizmlar

Omon Matjonning she‘rlarida, asosan, Xorazm shevasiga xos fonetik, morfologik va leksik xususiyatlar obrazlilikni ta‘minlab, badiiy asarning jozibadorligi va ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

*Fonetik dialektizmlar.* Fonetik dialektizm badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning aks etishidir. Fonetik dialektizmlar asosan, tovushlarni o‘zgartirib qo‘llash, tovush orttirishi, tovush tushishi va tovushlarni qavatlab qo‘llash



ko'rinishida namoyon bo'ladi. Omon Matjon asarlarida shevaning talaffuzi sodda va yengil bo'lishi hamda mahalliy kolorit, xududiy mansublikni o'zida aniq aks ettirishi unli va undosh tovushlarning turli xil kombinator va pozitsion o'zgarishlariga mos holatda yuzaga keladi. Shoirning liro-epik hamda dramatik asarlarida fonetik jozibadorlikni ko'plab o'rinlarda kuzatishimiz mumkin.

Ushbu asarlarda keltirilgan dialektizmlar quyidagi unli va undosh tovushlarning kombinator o'zgarishlari natijasida yuzaga kelgan

1. Dastlabki bo'g'inda *e* unlisi *ä* unlisiga o'tadi: kel – gäl, dedi – dädä; “Berä gäliñ, berä. Ičana girin!” [Beruniy: 35].

“Axir-paxirihni qoj, nä dädim, hazir alib girämän, tur dädim sanjo”. [Beruniy: 55].

2. -day qoshimchasidagi *a* unlisi *i* unlisiga o'tadi: shunday – shundi, bunday – bundiy: “Ina shundi däsäniz boladi-ku!” [Gaplashadigan vaqtlar: 35].

3. So'z boshidagi *k* jarangsiz undoshi *g* jarangli undoshiga almashadi: kel – gäl: ...sän gälärsän däv...[Haqqush qichqirig'i: 56]; ko'r – gör: “...araq görsän durävärmisän...” [Haqqush qichqirig'i: 56]; kelishishi – gälişishi: ...gapni galişikidan! [Haqqush qichqirig'i: 55].

4. So'z boshidagi *t* undoshi *d* ga jaranglashadi: tur – dur: “...aroq görsän duravarmiysan...” [Gaplashadigan vaqtlar: 56]; do'ppi – toppi: “...to'ppi qozonda bir palov qilaman...” [Gaplashadigan vaqtlar: 305]; to'g'ri – do'ri: “... samolyotdan do'ri Mulla To'ychinikiga galganlar...” [Gaplashadigan vaqtlar: 306].

5. *K*, *q* undoshlari bilan tugagan so'zlarga qo'shimcha qo'shilganda, bu tovushlar jaranglashmaydi: tilagi – tilaki, sochig'i – saçaqi [Gaplashadigan vaqtlar: 90].

*Morfologik dialektizmlar.* Morfologik dialektizm badiiy asarda shevaga xos morfologik elementlarning qo'llanishidir. Quyidagilarni bunga misol qilib keltirishimiz mumkin.

1. Qaratqich kelishigi affiksining *-in* / *-ing* varianti ham qo'llanadi: “...Qoraquming ichkarisiga kirish ...” [Beruniy: 17].

2. Sifatning intensiv shakli *dim* ravishi bilan shakllantirilgan: “... dim qatti dämäsän...” [Beruniy: 305].

3. Jo'nalish kelishigi affiksi *-a* variantida ham qo'llanadi: “...Hojixon akangni ina shu chertaka olib galsang-a!” [Beruniy: 56].

4. Ko'plik affiksi *-la* variantida ham qo'llanadi: “Ovozlari bulbuldin sayrashi uchun olganla! [Beruniy: 308].

*Leksik dialektizmlar.* Leksik dialektizim shevaga oid so'zlarning badiiy asarlarda qo'llanishidir. Bu romanda leksik dialektizmlarni ko'plab uchratishimiz



mumkin. Masalan: "...birorta ko'likka ham minmadim..." (*kölik* – bu o'rinda mashina ma'nosida), "...qopuni taqillatdim" (*qapu* – eshik), "...ulli urushdan burunroqqi yili..." (*ulli* – katta), "Tur o'rningdan, nishab yotibsanz?" (*nişab* – nima qilib), "...dishonda turibdi" (*dişan* – ko'cha), "...kim sani qarri dadi..." (*qarri* – qariya), "...rangi-ro'yi pitta ochilishganday bo'ldi" (*pittä*- jinday), "...dishina qarab zingdim-ov.." (*ziñdim* – otildim), "...poyingiz turibdi" (*pay* – ulush), "...Otamurod hali toza..." (*toza* – bu yerda yangi ma'nosida).

Badiiy adabiyotda adiblar dialektizmlardan ikki o'rinda foydalanadi, ya'ni:

1) dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko'rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida;

2) adabiy tilda sinonimi bo'lmagan so'zlarni majburan qo'llaydi. Masalan, Omon Matjon asarlarida *sazaq* (o'simlik nomi), *tunča* (mis qumg'on), *kalčäyä* (qumlikning taqir joyi), *itdunäk* (yovvoyi qovun turi) kabi dialektal so'zlarni qo'llaydi.

Yuqorida berilgan leksik dialektizmlar qahramonlar tabiatini, xarakterini, ham ularning qaysi huduga mansubligini ochib berishga harakat qilgan. Bundan tashqari yana shunday leksik dialektizmlar ham borki, ular adabiy tilda mavjud emas. Shuning uchun ham yozuvchi bunday so'zlarni qo'llaganda, albatta, yonida izohini berib o'tgan. Masalan: "*Kol*" – qumning pastak-chuqur joyi, "*qizil*" – qumning tepa joyi, "*tonqa tuncha*" – mis qumg'on, "*otashgir*" – o't olgich, "*o'y*" – qumning past joyi.

Shoirning qum tasvirlarini o'qir ekansiz, ko'z oldingizda cheksiz-poyonsiz qum manzaralari namoyon bo'ladi. Bu tasvirlar shoirning vatanini, ona tabiatni, qumni naqadar sevishidan dalolatdir.

Shuningdek, yozuvchi hikoyalarida *qo'sha*, *mamma*, *yol*, *matir ro'mol*, *takana* (*marli*), *kaxudo*, *enib kelmoq* ["Ardaxiva" dramatik qissasi]; *ushur-kavsanz*, *gulotiz*, *kunchiqar*, *to'rong'i*, *quyoshlomo* ["Cho'ldagilar" doston xronikasi]; *jo'juq*, *kunbotar* ["Cho'ldagilar" doston xronikasi] kabi dialektizmlar ishlatilganligini guvohi bo'ldik.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlarda shevaga oid so'zlardan foydalanish asarning mukammal bir sa'nat asari bo'lishligini ta'minlab beradi. Albatta, bu yozuvchidan juda katta mahorat talab qiladi. Omon Matjon o'z asarlarida fonetik, leksik va grammatik dialektizmlardan unumli foydalangan hamda yaratgan qahramonlari orqali mahalliy hududning so'zlashuv nutqiga xos milliy koloritini ochib bergan, o'ziga xos ijodkor uslubiga ega yozuvchi ekanligidan dalolat beradi. Yozuvchi dialektizmlardan asar qahramonlarining oddiy xalq vakili ekanligini ko'rsatish uchun, o'zi mansub bo'lgan shevaning bor jozibasini tasvirlash uchun foydalangan. Badiiy asarlarda dialektizmlardan o'rinli foydalanish yozuvchi mahoratining yaqqol isbotidir.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xorazm shevalari lug‘ati. 1-jild. – Urganch, 2024. –B.66.
2. Аширбоев С. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти, 2013. – Б.28.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – Б.389.
4. Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. – М.: Наука, 1962. – С.402.

